



Qorovulbozor tuman axborot-kutubxona markazi
Axborot- bibliografiya xizmati



ABDULLA QODIRIY O'ZBEK ROMANCHILIGI **ASOSCHISI**

ABDULLA QODIRIY TAYALLUDINING 132 YILLIGIGA

ADABIYOTLAR SHARHI

Abdulla
Qodiriy
(1894-1938)



Hayoti

Abdulla Qodiriy (asosiy taxalluslari: Qodiriy, Julqunboy) (1894.4.10-Toshkent-1938.10.4) – XX a. yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi; 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Bog'bon oilasida tug'ilgan. Otasi Qodirbobo (1820—1924) xon, beklar qo'lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida (1865) Toshkent mudofaasida qatnashgan. Otasi boshidan o'tgan sarguzashtlar Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan tarixiy romanlarining yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan. Abdulla Qodiriy musulmon maktabida (1904–1906), rus-tuzem maktabida (1908–12), Abulqosim shayx madrasasida (1916–17) ta'lim oldi; Moskvadagi adabiyot kursida (1925 26) o'qidi. Yoshligidanoq qadimgi Sharq madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topgan; arab, fors va rus tillarini o'rgangan. Jahon adabiyotini ixlos bilan mutolaa qilgan.

Abdulla Qodiriyning ulkan merosi haligacha kitobxonlar qalbidan joy olmoqda

Faoliyati

Oilasi kambag'allashganligi sababli bolalikdan mustaqil mehnat qila boshladi, turli kasblarni egalladi, mahalliy savdogarlarga kotiblik va gumashtalik qildi (1907–15). 1917-yil Oktabr davlat to'ntarishidan so'ng Eski shahar ozuqa qo'mitasining sarkotibi (1918), „Oziq ishlari“ gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho'rosining sarkotibi (1920), „Mushtum“ jurnalining tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi (1923–26).

Ijodi

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. „Sadoi Turkiston“ gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan „Yangi masjid va maktab“ sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibning matbuotdagi dastlabki chiqishi edi. Oradan ko'p o'tmay, uning „To'y“, „Ahvolimiz“, „Millatimga“, „Fikr aylagil“ kabi she'rlari, „Baxtsiz kuyov“ dramasi, „Juvonboz“ hikoyasi chop etiladi (1914—1915). Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalari bo'lgan bu asarlar millatparvarlik, ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan bo'lib, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgandir. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyib so'zlaydi, millatni uyg'onishga da'vat etadi, fikrlashga chorlaydi. Abdulla Qodiriyning „Uloqda“ hikoyasi (1916) avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, XX tonghisoblanadi.idagi o'zbek realistik adabiyotining cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi



Қодирий, Абдулла.

Ўтган кунлар : роман / А. Қодирий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2017. – 209 б

Ўзбек романчилиги ва ҳаётий ҳикоялар жанрларининг асосчиси, буюк устозимиз-Абдулла Қодирий (1894-1938-йиллар) XX аср ўзбек адабиётининг буюк дарғаларидан бири бўлган. Ушбу роман адабиётимиз бестселлери ҳисобланади.

Севги кимларни йиғлатиб, кимларни куйдирмаган дейсиз. Шарқ адабиёти дурдоналаридан ҳисобланмиш мазкур асарда муҳаббат ўзгача бадиий талқин қилинади. Шунингдек, ватанпарварлик, олижаноблик, вафо ва хиёнат, ҳавас ва ҳасад, замон талотўплари тилга олинади. Ҳам тарихий, ҳам адабий чизгилар, шоирона гўзал сўзлар, бетакрор тасвирий ифодалар, асар қаҳрамонлари тилидан айтилган ва бугунги кун ёшларининг тилида ҳам сеvgи ибораларига айланиб қолган оташин сўзлар... шубҳасиз айтиш мумкинки, асарни ўқимасликнинг , қайта-қайта мутолаа қилмасликнинг иложи йўқ.


Абдулла Қодирийнинг "Ўзбек романчилиги асосчиси" сифатида тан олиншига сабаб бўлган ушбу асар воқеалар тарихимизнинг бир кўриниши, муаллиф таъкидлаганидек ўзбеклар турмушидан тарихий романдир.



Қодирий, Абдулла.

Меҳробдан чаён : роман / А. Қодирий. –
Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа
ижодий уйи, 2018. – 328 б

Адабиёт – характерлар, образлар хазинасидир. Абдулла Қодирий ўзбек адабиёти образлар дунёсини характерлар галереяси билан бойитди. Адибнинг «Меҳробдан чаён» романидаги характерларнинг ҳар бири ўз қиёфаси, ўз тақдири, ўз тирикчилиги, ўз маишати билан билишга арзигулик сиймолардир. Абдулла Қодирий китобхон учун сеҳргар санъаткор, адиблар учун ижодий мезон муаллифидир.




Қодирий, Абдулла.

Танланган асарлар : роман / А. Қодирий; Нашрга тайёрловчи Х. Қодирий. – Тошкент: Sharq, 2014. – 880 б

Улуғ адиб, ўзбек романчилиги асосчиси Абдулла Қодирийни таъриф тавсифлашга ҳеч зарурат йўқ эсада, айтиш керакки, у бир умр миллат дарди билан нафас олди, ўзбек қалби жавоҳирларини тарона қилди, мозийимизни рўй-рост кўрсатди. Унинг шахси жуда жасур, мардона эди. Миллатнинг ҳурлиги. Бахту-саодатига бутун истеъдодини бағишлаган, жонини тиккан Қодирийни халқимиз душманлари қатл этди. Унинг умри ярим йўлда узилди. Нетонгки, у фавқулодда ёрқин истеъдоди билан дурдона асарлар битишга улгурган эди.

Абдулла Қодирий таваллудининг 120 йиллиги ва ижодини бошлаганининг 100 йиллиги кўнгил гўзаллиги ва ҳақиқатнинг ўлмаслиги, қолаверса, миллий адабиётимизнинг жаҳоншумул мувофақияти сифатида қизғин нишонланди. Шу муносабат билан ёзувчимизнинг энг сара асарларини биринчи марта бир китоб қатида тақдим қилинди, Бундаги муҳаббат васфи, инсонлик шарафи, халқ қисмати, унинг энг улуғ қадриятлари намунаси, бандачилик хатолари мўъжизавий қаламда кўнгилга кириб, олам-олам сурур бериши билан бирга, самимий бир сабоқ улашиши ҳам шубҳасиздир.



Qodiriy, Abdulla.

She'rlar, hikoyalar, ocherk, drama, hajviya va kichik asarlar : [Matn] / A. Qodiriy. /Nasrga tayyorlovchi Xondamir Qodiriy. So'zboshi muallifi Usmon Azim – Toshkent : “Zabarjad Media” , 2022. – 4006

Vatanining mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, millati farzandlarini sharafiga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari - «jadid adabiyoti namoyandalari» bugun yana o'z o'quvchilari bilan yuzlashmoqda.

Xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan, alaloqibat qatag'onga uchraganlar haqida so'z borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Is'hoqxon Ibrat siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi. Biz hamon «millatni uyg'otish uyg'onganlarning vazifasi» degan chorlovga munosib javob qaytarolganimiz yo'q.

Vatanining mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, millati farzandlarini sharafiga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari - «jadid adabiyoti namoyandalari» bugun yana o'z o'quvchilari bilan yuzlashmoqda.

Xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan, alaloqibat qatag'onga uchraganlar haqida so'z borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Is'hoqxon Ibrat siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi. Biz hamon «millatni uyg'otish uyg'onganlarning vazifasi» degan chorlovga munosib javob qaytarolganimiz yo'q.




Karim, Bahodir.

“O’tgan kunlar” ibрати : [Matn]/ B. Bahodir. – Toshkent:
“MASHUR-PRESS, 2019. – 150 b.

Abdulla Qodiriy ba “O’tgan kunlar” – bu egizak nomni
eshitmagan o’quvchi bo’lmasa kerak.


Aziz kitobxon!

Qodiriyshunos Bahodir Karimning ushbu kitobida
“O’tgan kunlar”ning umummazmunini, ayrim
qahramonlarning qisqa tavsifi hamda romanning o’ziga
xos tahlillari bilan tanishasiz. Risola Siz azizlar qalbida
“O’tgan kunlar”ni o’qish, ilgari o’qiganlarda esa qayta
o’qish istagi paydo qilishiga ishonamiz.



**XX asr O'zbek hikoyasi antologiyasi / O'ahrir hay'ati:
A. Oriđov va boshq. ; O'uzuvchi va nashrga
tayyorlovchilar: B. Karimov, H. Abdiyev. – O.:
«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy
nashriyoti, 2011. – 624 b.**

Yillar va asrlar yakuni har qanday sohada sarhisobga imkon beradi. Sarhisob ehtiyoji zaruratga aylanadi. Shu ma'noda XX asrda yozilgan hikoyalarning estetik qiymati, mavzu ko'lami, badiiy saviyasi, yutuqlari va boshqa qirralarini tasavvur etish uchun ushbu antologiyaga tartib berildi. Muhtaram o'quvchi, ushbu hikoyalar XX asr o'zbek hikoyasi xazinasidan saralab olindi. Eng muhimi ushbu antologiya muxlislar uchun o'ziga xos sovg'a bo'libgina qolmay, undan oliy o'quv yurtlarida, kollej, litsey va o'rta maktablarda qo'shimcha o'quv qo'llanma sifatida ham foydalanish mumkin.







Карим, Баҳодир.

Абдулла Қодирий феномени : Монография. Илмий-адабий, оммабоп нашр / Б. Карим. – Тошкент: “Info Capital Group, 2019. – 480 b

Ҳар бир авлод Абдулла Қодирий ижодини ўзича ўқийди, уқади, тасаввур қилади, ардоқлайди. Адиб романлари ҳар қандай ўқувчига ҳаётийлиги, гўзаллиги, миллийлиги, тозалиги, тириклиги, адабий кўлами, тасвир жозибаси, таъсир қуввати билан завқ-шавқ бағишлайди. Баҳодир Каримнинг ушбу китобида Қодирийшунослик тарихи, адиб ҳаёти ва ижодига дунё олимларининг муносабати бадиий маҳорат, биринчи ўзбек романининг кадр-қиймати, бошқаларга таъсири, хромотопи, маънавий-ахлоқий талқини, умуман, бадиий матни тадқиқига оид манбалар жамланган. Олим ёзувчининг юрак дардини ҳис этган, адабий-эстетик идеалини тушунган ва баҳоли қудрат тушунтирган. Ўқувчи китоб саҳифаларида Абдулла Қодирий ижодининг янги талқинларини, иловада эса асарларининг илк нусхаларидан айрим намуналар ўқийди. Умид шулки, Абдулла Қодирий қолдирган маънавий мулк ўтмишга айланмайди, замонлар билан бирга юради, келажакка хизмат қилади. Шу маънода китобдаги ҳайрату ҳақиқатлар, талқину топилдиқлар Абдулла Қодирий феноменини, улуғ адибнинг мегаобразини тасаввур қилишда сиз азизларга ёрдам беради, албатта.

ABDULLA QODIRIY ASARLARI




Hurmatli kitobxonlar!

Qorovulbozor tuman
Axborot–kutubxona markazi
O‘zbekiston xalq yozuvchisi,
o‘zbek romanchiligi
asoschisi Abdulla Qodiriy
asarlarini o‘qishni tavsiya
etadi. Yuqorida sizga
sizlarga tavsiya etilgan
adabiyotlar kutubxonamiz
javonlaridan o‘rin olgan.
Marhamat, tashrif buyuring
va ushbu adabiyotlardan
bahramand bo‘ling!

Ijtimoiy tarmoqlarda bizni kuzatib
boring!



<https://www.facebook.com/QorovulbozorTAKM>



<https://www.instagram.com/akmqorovulbozor/>



t.me/qbllibuz